

ISSN 2091-5594

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

Maxsus son



Toshkent - 2020

## «MAKTABGACHA TA'LIM» KAFEDRASI ISTIQBOLLAR BO'SAG'ASIDA

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'limning bosh bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor berilmoqda. Darhaqiqat, inson hayotida maktabgacha bo'lgan davr o'ziga xos ahamiyatga ega va u kelajakda erishiladigan yutuqlar va muvaffaqiyatlarga asos bo'ladi. Shu boisdan 90 yillik tarixga ega bo'lgan Buxoro davlat universitetida ham 2018 yil 6-aprelda Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti negizida "Maktabgacha ta'lim" kafedrasini tashkil etildi.

Ayni kunlarda "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishida bakalavr va magistratura bosqichlarida ta'lim-tarbiya jarayoni olib borilmoqda. Kafedrada jami 25 ga yaqin professor-o'qituvchilar ilmiy-pedagogik faoliyat olib bormoqdalar. Ular orasida fan nomzodlari, dotsent va kata o'qituvchilar bo'lajak tarbiyachilarning o'z kasbining fidoiysi bo'lib yetishishlari va yosh asistent o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarga moslashishi uchun imkon qadar yordam berib kelmoqdalar.

Respublikamizda ta'lim tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabalari bir qancha tanlovlarda faol ishtirok etishmoqda.

Ilg'or xalqaro tajribalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish maqsadida "Maktabgacha ta'lim" kafedrasini bir qancha xorijiy davlatlar universiteti bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, Rossiyaning Janubiy Ural gumanitar-pedagogika universiteti bilan hamkorlik ishlari bugungi pandemiya sharoitida ham davom etib kelmoqda. Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan dars mashg'ulotlari, master klasslar, ilmiy tadqiqotlar olib borish bo'yicha samarali ishlar tashkil qilingan va onlayn tarzda olib borilmoqda. Qolaversa, kafedra Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan ham memorandum imzolagan.

Bugungi kunda kafedrada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ko'zda tutilgan raqamli iqtisodiyotga mos ta'lim jarayonini zamonaviy multimedia texnologiyalari asosida joriy etish, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan unumli foydalanib ilmiy, ilmiy-pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish va albatta ilmiy salohiyatni yuksaltirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirib borilmoqda.

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **O.X.Xamidov**  
Oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari integratsiyasining asosiy tendensiyalari va muammolari
- 9 **O.R.To'xtanov**  
Uzluksiz ta'lim tizimida sharh mutafakkirlarining «ilm olmoq» ta'limoti mohiyati
- 13 **G.O.Hasanov**  
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi
- 17 **M.M.Nigmatova**  
Mashg'ulotlarda zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish
- 21 **G.Kamilova, G.Kurbonova**  
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishga integrativ yondashuv
- 25 **Z.B.Jalilov, N.H.Azimova, S.Rahmonova**  
Ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari
- 29 **S.S.Avezov**  
O'qituvchi mutq madaniyati kompetentligi
- 33 **G.U.Umarova**  
Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlari
- 38 **D.Sh.Mirzayeva**  
Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori
- 42 **D.Sh.Eshova, N.N.Hamroyeva**  
Bolalar nutqini o'stirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati
- 46 **M.Y.Ro'ziyeva, Ch.T.Yemrayeva**  
Ta'limda xalq ehtaklarining tarbiyaviy ahamiyati va ularni o'rgatishning innovatsion usullari

## MA'NAViy TARBIYA

- 50 **G.Sh.Rahmonova**  
Shaxs kamolotida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-axloqiy va pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish
- 55 **M.B.Sharipova**  
O'quvchi-yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana marosimlarning ahamiyati
- 59 **G.B.Ergasheva**  
Личностное отношение условий учебной и профессиональной деятельности учителя
- 64 **C.Д.Ниязова**  
Роль игры в экологическом образовании дошкольников
- 69 **Л.Г.Рисцова**  
Формирование элементарных математических представлений у дошкольников через дидактические игры
- 74 **Sh.Sh.Nizomova**  
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovuh tizimini shakllantirish
- 78 **H.X.Rajabova**  
Особенности организации и проведения дидактических игр с детьми старшего дошкольного возраста
- 84 **H.A.Xamraeva**  
Методы использования инновационных технологий на уроках русского языка и литературы
- 90 **N.S.Turdiyeva, Z.M.Ashurova**  
O'z-o'zini tarbiyalash borasidagi ajdodlarimiz qarashlari

## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 94 **G.Д.Ниязова, H.Икрамова**  
Роль методической службы в развитии профессиональной компетентности педагога ДОУ
- 99 **L.T.Ochilova, L.Ch.Rajabova**  
Matematika mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati
- 103 **E.F.Nurullayev, N.A.Ukrainova**  
Oilada sog'lom, ma'naviy-axloqiy muhit
- 107 **Sh.H.Qulieva, A.A.To'raev, E.Sh.Avezova**  
Tizimli yondashuv asosida bo'lajak o'qitvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish



## O'QITUVCHI NUTQ MADANIYATI KOMPETENTLIGI

**S.S.AVEZOV,**  
BuxDU dotsenti, f.f.n

*Inson boshqa mavjudotlarjan tili, nutqi orqali farq qiladi. Insoniyatning mazkur nutq jarayoni ham o'ziga xos qonuniyatlarga ega. Maqolada nutq va uning ijtimoiy ahamiyati, nutq madaniyati va uning xususiyatlari, so'zning nutq jarayonidagi o'rni, Sharq notiqlik san'atining namoyondalari, o'qituvchi nutq fazilatlarini va uning yosh avlod kamolotiga ta'siri haqida so'z boradi.*

**Tayanch so'zlar:** nutq, so'z, nutq madaniyati, milliy mentalitet, Notiqlik san'ati, notiq (va 'xon yoki voiz), o'qituvchi nutqi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida nutq.

*Человек отличается от других существа языком и речью. Этот процесс человеческой речи тоже имеет свои законы. В статье рассматривается речь и ее социальная значимость, культура речи и ее особенности, роль речи в речевом процессе, представители искусства восточной речи, качества педагогической речи и ее влияние на развитие подрастающего поколения.*

*Ключевые слова:* речь, слово, культура речи, национальный менталитет, публичное выступление, оратор (проповедник или проповедник), речь учителя, деятельность учителя и ученика.

*Man differs from other beings in language and speech. This process of human speech also has its own laws. The article discusses speech and its social significance, speech culture and its features, the role of speech in the speech process, representatives of the art of Oriental speech, the qualities of teacher speech and its impact on the development of the younger generation.*

*Keywords:* speech, word, speech culture, national mentality, public speaking, speaker (preacher or preacher), teacher speech, teacher and student activities.

Nutq-inson tafakkuri mahsuli. U o'zining ongli, mazmunan sermahsul va jozibador nutqi bilan jamiyatda o'rin topadi. Xususan, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan betinim rivojlanib borayotgan yangi demokratik jamiyatimizda shaxs kamoli, uning yuksak madaniyati va milliy xarakter xususiyatlari, milliy mentalitetga ega yangicha dunyoqarashi bilan alohida mas'uliyat kasb etadi.

Nutq madaniyati –so'zlovchining nutq jihatdan kompetentli mahoratini, o'zaro kommunikativ munosabatda ona tilimizdan o'rinli, to'g'ri, mantiqli, jo'yali, ifodali va ta'sirchanlik ruhida foydalanish mazmunini tashkil etadi. O'qituvchi nutqning bu kommunikativ sifatlarini egallash uchun o'ziga nisbatan juda kata mas'uliyat va talabchanlikni amalga oshirib borishi lozim. Inson bu ko'hna olam qo'ynida yashar ekan, u shu jamiyat kishilari bilan muloqotga kirishib munosabat



ko'rsatishga majburdir. Zero, har bir insonning boshqalar yoki ko'pchilik bilan munosabati nutq orqali yuzaga chiqadi, shu asnodagi uning aql-zakovati, madaniyati va ma'naviyati namoyon bo'ladi. Til asl ma'noda moddiylik kasb etadi (lug'aviy ma'nosi – nutq a'zosi hisoblanib, kishilarda nutq tovushi hosil qiladigan vosita), ikkinchi ma'nosi ham madaniyatga taalluqli bo'lib, u ajdodlarimizdan bizlargacha yetib kelgan ma'naviy meros sanaladi. Yoxud o'zbek tilidagi lug'at-so'z manbasining umumiy yig'indisidir. Uchinchi ma'nosi ijodiy mazmun kasb etib, so'z manbasidan qanday va qay tarzda foydalanib, nutq faoliyatimizdagi xatti-harakatimiz, aql-zakovatimiz, ruhiy holatimizni ifoda etuvchi jarayon anglashiladi. Ko'rinadiki, ikki manba faoliyat doirasi asosida so'z yotadi. O'qituvchi nutqining asosini til tashkil etadi. So'z – inson faoliyati, hayoti uchun to'g'ri, aniq ma'no kasb etib muomala-munosabatda qo'llansagina, u jon oladi, "tiriladi". So'z - muomala, suhbatda qatnashmasa, umri qisqarib boradi. Demak, har bir so'z ham inson kabidir, lekin insondan ko'p yashaydi, uning mehri bilan avloddan-avlodga meros bo'lib qolaveradi. Shuning uchun so'z ma'nosini his qilish, uning kuch-qudratini anglash, u orqali bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsata olish esa inson madaniyati darajasini belgilaydi.

Nutq madaniyati uzoq tarixiy taraqqiyotga ega. Uning yuksak namunasi notiqlik san'ati bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi nutqi samarasi o'z fikrini aniq va teran yetkazib berishda sanaladi. Bu esa o'quvchilar, kasbdoshlar va atrofidagi kishilar bilan o'zaro munosabatida ayonlashadi.

Notiqlik san'ati O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan san'at turlaridan biri sanaladi. Ular orasida buyuk qomusiy olimlar A. Beruniy, A. Forobiy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Sakkokiy til, lug'at, grammatika va mantiqqa doir ilmiy asarlar yaratganlar. Bular o'z navbatida notiqlik san'ati rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shishgan. Chunonchi, Beruniy asarlarida nutqni ikki xil yo'l bilan ifodalash – nasr va nazmda namoyon etish mumkinligini bildirsa, Forobiy grammatika va mantiq fanlarining nutqdagi o'rni va ahamiyatini izohlaydi.

Sharq notiqlik san'atining namoyondalaridan biri Kaykovusdir. U o'zining mashhur asari "Qobusnoma" bilan taniqli. Kaykovusning ushbu asari XI asr Sharq pedagogikasining nodir boyligi bo'lishi bilan bir qatorda, bu asarda notiqlik haqida ham nozik fikrlar bayon etilgan. Asarining "Suxandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida" deb nomlangan yettinchi bobida va hunarni egallashga bag'ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir bildirilgan mulohazalar nafaqat o'sha davrda, balki hozirda ham katta ahamiyatga ega. U: "Notiqlikni egallash yo'li, birinchidan, tinimsiz mehnat qilishdir, deydi, – ikkinchidan, nutqning go'zal bo'lsin. So'zining ikki tomoni bordir. Biri go'zal tomoni,



ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul kilsin".

O'zbek mumtoz adabiyotining ulkan namoyandasi, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy butun ijodi bilan o'zbek tilining boyligi, naqadar go'zalligi, jozibadorligi, chuqur ma'no kasb etishini namoyon etdi. Shoirming "Agar shohsen sen –ogohsen sen, agar ogohsen sen –shohsen sen" degan dono fikrida ham tilimizdagi so'z qadrini qanchalik yuksak darajada egallagan insomning shoh darajada bo'lishini anglash mumkin. U notiq (va'zxon yoki voiz) nutqidan inson hamisha ta'sirchan bo'lishini ta'kidlaydi: "Va'zxon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga kirgan odam to'lib chiqsin, to'la kirgan odam esa yengil tortib, holi qaytsin". Uning voiz qanday bo'lishi haqidagi fikri ham ahamiyatlidir: "Voiz xaq so'zni targ'ib qilishi, Payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o'zi xaq va shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq – musofirni yo'ldan adashtirib biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi - uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da'vat etganiga o'xshash bir narsadir." Demak, voiz, avvalo, o'zi shariat va tariqat yo'lga kirgan notiq bo'lishi kerak ekan.

Navoiy davrining yuksak voizi, zamondoshi Mavlono Husayn Voiz Koshifiydir. O'zining "Futuvvatnomai Sultoniyyoxud javonmardlik tariqati" asarida shunday yozadi: "Bilgilki, odamzodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam, u sharafdan bebahradir. So'z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to'g'ri va haqqoniy bo'lishi kerak. Notiq so'zlovchilarni ikki guruhga ajratadi: 1. Martabaga erishganlar. 2. Martabaga erishmaganlar.

Martabaga erishgan ulamolar(olimlar, oriflar-SA)nutqda so'z o'mi va qadrini aniq biladiganlar hisoblanib, ular quyidagi qoidalarga rioya qilishlari zarur. Birinchidan, har kimning ahvoliga qarab, munosib so'z aytsin. Ikkinchidan, dag'allik qilmasdan lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. To'rtinchidan, ovozini baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga nafi tegadigan ma'noli gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar so'zning qadr- qimmatini bo'lmasa, uni tiliga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisoli urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni yerga eksang unib chiqmaydi"—deb ko'rsatadi.

Martabaga erishmaganlar ko'pchilikni tashkil etib, endigina nutq fazilatlarini o'rganayotgan kishilardir. Ular quyidagi suhbat va nutq odobi qoidalarga rioya qilishlari zarur: birinchidan, so'zlamaganlarga gapirmasin. Ikkinchidan, so'zlayotganda ovozini baland ko'tarmasin. Uchinchidan, gapirayotganda o'ng'u so'lga qaramasin. To'rtinchidan, g'arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin. Beshinchidan, qattiq gapirmasin va betgachoparlik qilmasin. Oltinchidan,



pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirsin. Yettinchidan, odamlarning gapini bo'lib gap qaytarmasin. Sakkizinchidan, ko'p gapirmasin, chunki ko'p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo'lsa ham soz gapirishni shior etsin".

O'zbek adabiyotida ham o'z asarlari va nutq irod qilish mahorati bilan mashhur adiblar anchagina. Ular orasida Behbudiy, A. Avloniy, A. Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, G'. G'ulom, Oybek, X. Olimjon, M. Shayxzoda, A. Qahhorlar nomini ehtirom bilan tilga olmoq lozim. Keyingi yillarda esa S. Ahmad, Odil Yoqub, P. Qodirov, E. Vohidov, A. Oripov, Sh. Xolmirzaev, O'tkir Hoshimov, Tog'ay Murod kabi adiblar ham o'z asarlari bilan xalq orasida shuhrat qozonganlar.

Birgina H. Olimjonning "Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman" maqolasida butun xalqni dushmanga qarshi kurashga da'vat etuvchi so'zlari nihoyatda ta'sirlidir: "Qadim o'zbek yigitlari uzoq safarga otlanganlarida o'zlari bilan bir siqim ona tuproqni ham olib borganlar. Bu tuproq ularni xatarlardan himoya qilgan, ularni o'q o'ldira olmagan, nayza tasha olmagan, o'tdan olib o'tga tashlaganda ham omon saqlagan". Bir siqim tuproq-Vatan timsoli, yurt himoyasi uchun fidoyilik ramzi ekanini his qilish qiyin emas.

Xullas, yuqoridagi fikrlardan aniqlash mumkinki, nutq madaniyati kompetentligi insonning jamiyatdagi o'zini topishda, shaxs va mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatishga erishtiradi. O'qituvchi nutq madaniyati kommunikativ sifatlari, iqtidori yosh avlod taraqqiyotida munosib ta'sirga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kaykovus. Qobusnoma. To'ldirilgan 2 - nashri. Toshkent: "Istiqlol", 1994-78-b.
2. Husayn Voiz Koshifiy. "Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati". 1993, T, A Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, fors tojik tilidan N. Komilov tarjimai 3-8-betlar.
3. H. Olimjon "Tanlangan asarlar", Adabiyot va san'at nashriyoti, 1-tom 1961-yil 76-b.

